

# Yashil

IQTISODIYOT  
TARAQQIYOT  
va

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

2  
0  
2  
4



No 9

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'sratish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati

# **Yashil**

## IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Bosh muharrir:**

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich

*Elektron nashr. 274 sahifa.*

*E'lon qilishga 2024-yil 7-sentyabrda ruxsat etildi.*

**Bosh muharrir o'rinnbosari:**

Karimov Norboy G'aniyevich

**Muharrir:**

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

### **Tahrir hay'ati:**

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston Fanlar akademiyasi akademigi

Rae Kvon Chung, Janubiy Koreya, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyati rahbari

Sharipov Kongiratbay Avezimbetovich, t.f.d., prof., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlisi qonunchilik palatasi deputati

Axmedov Sayfullo Normatovich, i.f.n., professor, MIM akademiyasi rektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., Navoiy davlat pedagogika instituti rektori

Siddiqova Sadoqat G'afforovna, p.f.f.d., (PhD), Buxoro muhandislik-texnologiya instituti rektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU Hududiy ta'lif muassasalari va markazlar bo'yicha prorektor v.b.

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TDIUpfessori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Axmedov Ikrom Akramovich, i.f.d., TSUE professori

Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja o'g'li, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokururaturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokururaturasi IJQKD boshlig'i

Eshtayev Alisher Abdug'aniyevich, i.f.d., TDIU professori

Musayeva Shoira Azimovna, SamDu IS instituti professori

Cham Tat Huei, ( PhD) USCI universiteti professori, Malayziya

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d.,(PhD) "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d.,(PhD) TAQU katta o'qituvchisi

Djudi Smetana, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Krissi Lyuis, p.f.n., Pitsburg davlat universiteti dosenti, Pittsburgh, Kansas, AQSH

Ali Konak (Али Күнак), i.f.d., prof., Karabuk universiteti dosenti, Turkiya

Glazova Marina Viktorovna, i.f.n., "LUKOIL-Energoservis" Kompaniyasi iqtisodchisi, Moskva.

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., (PhD) TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktoranti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Editorial board:**

**Salimov Oqil Umrzokovich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Abdurakhmanov Kalandar Khodjaevich**, Academician of the Academy of Sciences of Uzbekistan  
**Rae Kwon Chung**, honorary professor of TSUE, Nobel laureate, South Korea,  
**Osman Mesten**, member of the Turkish Parliament, head of the Turkey-Uzbekistan Friendship Society  
**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, DSc, Prof., Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan  
**Buzrukhanov Sarvarkhan Munavvarhanovich**, DSc, Deputy Minister of Higher Education, Science and Innovation of the Republic of Uzbekistan  
**Akhmedov Durbek Kudratillayevich**, DSc, Prof., Deputy of the Legislative Chamber of the Oliy Majlis of the Republic of Uzbekistan  
**Akhmedov Sayfullo Normatovich CSc**, Prof., Rector of Academy of Labor and Social Relations  
**Abdurakhmanova Gulnora Kalandarovna**, DSc, Prof., TSUE Vice-Rector for Scientific Affairs and Innovation  
**Kalonov Mukhiddin Bakhritdinovich**, DSc, Prof., Rector of the Navoi State Pedagogical Institute  
**Siddikova Sadokat Ghaforovna**, PhD, Rector of the Bukhara Institute of Engineering and Technology  
**Khudoykulov Sadirdin Karimovich**, DSc, Prof., acting Vice-rector for regional educational institutions and centers of TSUE  
**Yuldashev Mutallib Ibragimovich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Samadov Askarjon Nishonovich**, CSc, Prof., of TSUE  
**Slizovsky Dimitriy Yegorovich**, DSc, Prof., of the People's Friendship University of Russia  
**Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich**, DSc, Prof., Rector of International "Nordic" University  
**Akhmedov Ikrom Akramovich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Foziljonov Ibrohimjon Sotvoldixo'ja ugli**, DSc, Prof., of TSUE  
**Utayev Uktam Choriyevich**, Deputy Head of the DGPO of the Republic of Uzbekistan  
**Ochilov Farkhad**, Head of the DCECGPO of the Republic of Uzbekistan  
**Eshtayev Alisher Abduganievich**, DSc, Prof., of TSUE  
**Shoira Azimovna Musaeva**, professor of SamDu IS Institute  
**Cham Tat Huei**, PhD, professor at USCI University, Malaysia  
**Akhmedov Javokhir Jamolovich**, PhD, deputy of executive director of the "El-yurt umidi" fund  
**Tokhirov Jaloliddin Ochil ugli**, PhD, Senior Lecturer at Tashkent University of Architecture and Construction  
**Judy Smetana CSc**, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA  
**Chrissy Lewis CSc**, Associate Professor, Pittsburgh State University, Pittsburgh, Kansas, USA  
**Ali Konak DSc**, Prof., Associate Professor of Karabuk University, Turkey  
**Glazova Marina Viktorovna**, CSc, economist at LUKOIL-Energoservis Company, Moscow.  
**Nosirova Nargiza Jamoliddin kizi**, associate professor of TSUE  
**Sevil Piriyeva Karaman**, PhD, doctoral student at Ankara University, Turkey  
**Mirzaliyev Sanjar Makhamatjon ugli**, independent researcher of TSUE

## **Ekspertlar kengashi:**

**Berkinov Bazarbay**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor  
**Po'latov Baxtiyor Alimovich**, t.f.d., profesor  
**Aliyev Bekdavlat Aliyevich**, f.f.d., TDIU professori  
**Isakov Janabay Yakubbayevich**, i.f.d., TDIU professori  
**Xalikov Suyun Ravshanovich**, i. f. n., TDAU dotsenti  
**Rustamov Ilhomiddin**, f.f.n., Farg'ona davlat universiteti dotsenti  
**Hakimov Ziyodulla Ahmadovich**, i.f.d, TDIU dotsenti  
**Kamilova Iroda Xusniddinovna**, i.f.f.d., TDIU dotsenti  
**G'afurov Doniyor Orifovich**, p.f.f.d., (PhD)  
**Fayziyev Oybek Raximovich**, i.f.f.d. (PhD), Alfraganus universiteti dotsenti  
**Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich**, i.f.f.d, TDIU dotsenti  
**Xamidova Faridaxon Abdulkarim qizi**, i.f.d., TMI dotsenti  
**Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna**, TDIU katta o'qituvchisi  
**Babayeva Zuhra Yuldashevna**, TDIU mustaqil tadqiqotchisi

**Muassis:** "Ma'rifat-print-media" MChJ

**Hamkorlarimiz:** Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, O'zR Tabiat resurslari vazirligi, O'zR Bosh prokururaturasi huzuridagi IJQK departamenti.

## **Jurnalning ilmiyligi:**

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O'zbekiston Respublikasi  
Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar  
vazirligi huzuridagi Oliy  
attestatsiya komissiyasi  
rayosatining  
2023-yil 1-apreldagi 336/3-  
sonli qarori bilan ro'yxatdan  
o'tkazilgan.



# MUNDARIJA

Tijorat banklari kredit portfelini boshqarishning bozor mexanizmlari va ularni joriy etishdagi muammolar .....	21
Yusupov Shoxzod Maxmatmurodovich	
Hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish davrlari ekonometrik modelini yaratish masalalari.....	24
Abdullayev Farxod Ozodovich	
Marketing yondashuvi asosida Sirdaryo viloyatining investitsion salohiyatini baholash usullari.....	35
Xolmurotova Diyoraxon Ibragimovna	
Bevosita soliqlar ma'muriyatichiligi.....	41
Idirisov Alisher Otajonovich	
Soliq nazorati va transfert narxni belgilashda soliq nazoratini tashkil etishning xorij tajribalari.....	46
Abdiev Jaxongir Ibragimovich	
Soliq siyosati va strategiyasining ilmiy-nazariy tahlili.....	53
Djumaniyazov Marks Quranbaevich	
Pestel tahlili – muvaffaqiyatlari investitsiya qarorlarini qabul qilish asosi .....	60
Shaislamova Nargiza Kabilovna	
Tijorat banklari tomonidan biznes loyihalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning o'ziga xos xususiyatlari .....	67
Asrorov Azizbek Isomiddin o'g'li	
The significance, problems and solutions of the green economy in the New Uzbekistan economy.....	74
Sattorova Mehriniso, Ibragimova Gulchehra Tohirova	
O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni soliqqa tortishning joriy qilinishi va rivojlanish tendensiysi .....	79
Otamuradov Nuriddin Najmiddinovich	
Korporativ boshqaruvni innovasion rivojlantirishda raqamli texnolgiyalardan foydalanishning nazariy asoslari .....	87
Xalmuradov Elmurod Dilmuradovich	
Международный опыт стимулирования инновационной деятельности.....	93
Абдиуалиева Гулзада Азатовна	
How does foreign direct investment promote economic growth? .....	98
O'tkirova Bonu Azamat kizi	
Mintaqalarni barqaror rivojlantirishning konseptual asoslari va ular evolyutsiyasi.....	102
Umarov Abduvaxob Tursunovich	
Technological Innovations of Electronic Payment Systems.....	107
Mirkomil Boboyorov Murodullaevich	
Ta'lim xizmatlari sohasida davlat-xususiy sherikligining rivojlanishida xorij tajribasining o'rni va ahamiyati.....	115
Imomov Xolmurod Norqul o'g'li	
O'zbekiston iqtisodiyotiga to'g'ridan-to'g'ri xorijiy investisiya va xorijiy kreditlar jalb qilish samaradorligi tahlili .....	119
Maksudov Abdumalik Xodievich	
Davlat ehtiyojlari uchun tovarlar (ishlar, xizmatlar) xarid qilishni takomillashtirish .....	124
G'ofurov Temur Baxrom o'g'li	
Mamlakatimizda oziq-ovqat sanoatini rivojlanish holati va uning dolzarbligi .....	129
Turg'unov Muxriddin Mo'ydinjon o'g'li	



Turizmda innovatsiyalarni qo'llash imkoniyatlari..... <b>Po'latov Ma'murjon Murodjon o'g'li</b>	133
Davlat budgetining soliqli daromadlari tahlili .....	139
<b>Abduraimova Nigora Radjabovna</b>	
Soliq yuki soliq tizimining qanchalik samarali ekanligini aniqlovchi muhim mezon .....	143
<b>To'lakov Ulug'bek Toshmamatovich</b>	
O'zbekiston sanoat korxonalarida xom ashyo resurslaridan samarali foydalanishning hozirgi holati, muammolari va mintaqaviy xususiyatlari (qashqadaryo viloyati misolida) .....	151
<b>Ochilov Akram Odilovich, Xazratov Sarvar Ibragimovich</b>	
Cостояние туристической инфраструктуры Ташкентской области.....	156
<b>Гаппарова Майрамхон Зафар кизи</b>	
Sanoatlashuvning ekologik ta'siri va "yashil" iqtisodiyotga o'tishning asoslari .....	161
<b>Nosir Maximudov, Lola Azimova</b>	
Iqtisodiyotni raqamlashtirishda sinergetik ta'sirning nazariy asoslari .....	167
<b>Maxmudova Zoxida Maqsudali qizi, Normurodov Xusan</b>	
Davlat budgeti xarajatlaridansamarali foydalanishni takomillashtirish.....	173
<b>Sherxon Tuychiyev</b>	
Savdo korxonalarida ta'minot zanjirining asosiy bosqichlari va muammolari.....	177
<b>Ergashev Jahongir Baxodirovich</b>	
Kichik biznes subyektlarining innovatsion loyihalarni moliyalashtirish yo'llari.....	180
<b>Ergashev Firuz Baxodirovich, Ishturdiev Hasan Abdigapparovich</b>	
Budget tashkilotlarida qurilish-ta'mirlash xarajatlari hisobining asoslari.....	184
<b>Azizova Zilola Lochin qizi</b>	
Xorijiy mamlakatlarda tadbirkorlik subyektlari tomonidan mahalliylashtirish asosida mahsulot ishlab chiqarishning o'ziga xos jihatlari .....	191
<b>Mirzabaev Xusniddin Muxamadjonovich</b>	
Suv ekologiyasining asosiy yo'nalishi va uning fandagi o'rni.....	200
<b>Musayeva Muqaddas Abdurashid qizi</b>	
Анализ прибыли агропромышленности .....	204
<b>Гафурова Азизахон Фатиховна</b>	
Systematic analysis of briquette mass pressing equipment approach.....	209
<b>Kobilov Khasan Khalilovich, Sharipova Nazira Rakhmatilloyevna</b>	
An Econometric Assessment of the Effects of Fintech on Economic Growth in Developed Countries .....	213
<b>Anvarkhonov Abdulatifkhon Jamshidkhon ugli</b>	
Raqamli iqtisodiyot rivojida korporativ boshqaruva faoliyatining roli .....	216
<b>Muxitdinov Ulug'bek Diyarovich</b>	
Значение промышленной сети в развитии деятельности предприятий малого бизнеса.....	221
<b>Кодиров Жавлонбек Нематуллаевич</b>	
Tadbirkorlik kambag'allikni qisqartirishning asosiy yo'nalishi.....	225
<b>Xolmirzayev Abdulxamid Xapizovich</b>	
Kichik biznes subyektlarida mahsulot ishlab chiqarishda innovatsiyani joriy etish masalalari.....	230
<b>Mirzayev Kobil Nosirjonovich</b>	
Investisiya faoliyatini moliyalashtirish manbalarini rivojlantirish mexanizmlari.....	236
<b>Ismailov Dilshod Anvarjonovich</b>	
Innovasion iqtisodiyotni shakllantirish sharoitida sifat menejmentini joriy etishning nazariy-uslubiy masalalari.....	242
<b>Zarina Ashurova</b>	



Social media marketing strategies for small businesses.....	247
Mannonov Shahzod Istam ugli	
Xalqaro shartnomalar qoidalarini qo'llashning xalqaro va milliy uslubiy tamoyillarining o'zaro ta'siri .....	250
Rajapov Shuxrat Zaripbaevich	
Neft-gaz, yoqilg'i energetika sanoati sohasidagi yirik soliq to'lovchilarda soliq nazoratini samarali tashkil etish va takomillashtirish masalalari .....	258
Abdullaev Shuxrat Sultanbaevich	
Cуть и значимость инновационных технологий в региональном управлении .....	266
Муминов Фазлиддин Хусниддин угли	

# MUNDARIJA SODERJANIYE CONTENTS



# TADBIRKORLIK KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISHNING ASOSIY YO'NALISHI

Xolmirzayev Abdulkamid Xapizovich

NamMTI "Buxgalteriya hisobi va audit"

kafedrasi katta o'qituvchisi, PhD

**Annotatsiya:** Maqolada kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim ahamiyati, aholi bandligini ta'minlash, daromadlarning shakllanishi va buning natijasida kambag'al aholi qatlamining kamayishi bo'yicha taklif va tavsiyalar berilgan.

**Kalit so'zlar:** kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, kambag'al aholi qatlami, iqtisodiy o'sishni tezlashtirish, moliyalashtirish, ta'lim va treninglar o'tkazish, ishbilarmonlik muhiti, ish o'rirlari yaratish, texnik qo'llab-quvvatlash, bozorni rivojlantirish, infratuzilmanni rivojlantirish, ijtimoiy himoya.

**Abstract:** The article provides proposals and recommendations on the importance of small business and private entrepreneurship in providing employment to the population, generating income and, as a result, reducing the number of poor people.

**Key words:** small business and private entrepreneurship, poor people, accelerating economic growth, financing, education and training, business environment, job creation, technical support, market development, infrastructure development, social protection.

**Аннотация:** В статье приводятся предложения и рекомендации о значении малого бизнеса и частного предпринимательства в обеспечении занятости населения, получении доходов и, как следствие, сокращении количества бедного населения.

**Ключевые слова:** малый бизнес и частное предпринимательство, бедное население, ускорение экономического роста, финансирование, образование и обучение, бизнес-среда, создание рабочих мест, техническая поддержка, развитие рынка, развитие инфраструктуры, социальная защита.

## KIRISH

Mamlakatda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanishining bir necha ijobji tomonlari mavjud. Jumladan, raqobatchilikning zarur muhitini hosil qiladi, bozor sharoitidagi ko'pgina o'zgarishlarga tezda moslasha oladi, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasida yangidan yangi qo'shimcha ish o'rirlarini yaratadi, iqtisodiyotni uzlucksizligini va barqarorligini ta'minlashda katta o'rinnegallaydi. Tadbirkorlik faoliyatining taraqqiy etishi aholining moddiy, moliyaviy, intellektual resurslarini ishga solib, mamlakatda mulkdorlar sinfining shakllanishini tezlashtiradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning jadal rivojlanishi erkin bozor infratuzilmalari faoliyatini rivojlantiradi. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning yana bir muhim jihat shundaki, kuchli raqobatchilik muhiti sharoitida ular doim rivojlanishga moyil bo'lishadi va bozorning joriy shartlariga moslashishlariga to'g'ri keladi, boshqa tadbirkorlik subyektlaridan ustun bo'lishlari ularning foyda miqdorlarining oshish manbai hisoblanadi.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Tadbirkorlikni rivojlanirish va uning iqtisodiy samaradorligini oshirish hamda kambag'allikni qisqartirish muammolari yuzasidan xorijlik iqtisodchi olimlar A. Smit, D. Rikardo, A. Ditont, P.A. Samuelson, V.D. Nordaus,



Ch. But, F. Fon Xayek, P.J. Prudon va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borganlar<sup>1</sup>.

MDH mamlakatlarida A.A. Savichev, V.A. Rojkovskiy, A.V. Soy, Ye.L. Aleksandrov, O.E. Aleksandrova, Ye.S. Balabanova, Ye.I. Beglova, L.A. Elovikov, I.V. Shugaeva, A.A. Razumov, O.V. Selivanova, L.A. Zubkevich kabi iqtisodchilarning ilmiy asarlarida kambag'allikni qisqartirishda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari o'z aksini topgan<sup>2</sup>.

O'zbekistonda kichik biznesni rivojlantirish va kambag'allikni qisqartirishda tadbirkorlikni tutgan o'rning umumiy jihatlari S.S. G'ulomov, Yo. Abdullayev, B.Yu. Xodiyev, M.S. Qosimova, S.K. Salayev, U.V. Gafurov, Sh.I. Mustafaqulov, M.Z. Muxiddinova, M.X. G'aniyev, B. Pardayeva va boshqalarning ishlarida ilmiy asoslab berilgan<sup>3</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Maqolada kichik biznesni rivojlantirish bilan kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlarini rivojlantirish bo'yicha mavjud bo'lgan ilmiy tadqiqotlar o'rganildi. Kichik biznes subyektlari yillik statistik hisobotlarini tahlil qilish va taqqoslash, mantiqiy fikrash, ilmiy abstraktsiyalash, ma'lumotni guruhlash, analiz va sintez, induktsiya va deduksiya usullaridan keng foydalanildi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning muhim ahamiyatli tomonlaridan yana biri aholi bandligini ta'minlab, daromadlar shakllanishi va buning natijasida kambag'al aholi qatlamining kamayishiga olib keladi. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi, eng avvalo, mamlakatdagi kambag'allikni qisqartirishga katta ta'sir ko'rsatdi. Kambag'allik darajasi 2020-yilga qadar o'chanmagan, bu davrgacha kam ta'minlangan aholi ulushi hisoblab borilgan (1-jadval).

O'zbekiston tajribasida kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishi iqtisodiyot tarmoqlarida yangi ish o'rinalini samarali yaratish va o'zini o'zi ish bilan ta'minlash orgali kambag'allikni qisqartirishga e'tibor qaratilmoqda. Mamlakatda iqtisodiy o'sish choralarini ko'rish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Mutaxassislarning fikricha, iqtisodiy rivojlanish darajasi, ko'pincha aholi jon boshiga to'g'ri keladigan Yalpi Ichki Mahsulot (Yalm) bilan o'chanmagan darajada yuqori bo'lsa, mutlaq qashshoqlikni kamayitirish imkoniyatlari shuncha kengayadi.

1 Смит А. Исследование о природе и причинах богатства народов. – М.: ЭКСМО, 2007. – с. 960; Рикардо Д. Начала политической экономии и налогового обдажения./Пер.анг.-М:Эксмо, 2016 г; Deaton A. (2013) The Great Escape: Health, Wealth, and the Origins of Inequality, Princeton, N.J.: Princeton University Press. Пол А. Самуэлсон, Вилям Д.Нордхус. Экономика: Пер с англ. –М.: "Лаборатория Базовых Знаний", 2000. -800 с.: ил. Boot Ch. Life and London of the people in London [Electronic resource] / Ch. Boot. – URL: <https://archive.org/details/lifelabourofreop07bootiala>.Хайек , Ф. А. фон, Дорога к рабству : пер. с англ. / Ф. А. Хайек. – М.: Экономика, 1992. – 176 с. Прудон, П.-Ж. Бедность как экономический принцип: пер. с фр. / П.-Ж. Прудон. – М.: Посредник, 1908. – 29 с.

2 Савичев А.А. Факторы и условия устойчивого развития малого и среднего предпринимательства // Вестник университета. 2015, №4. С. 144-149; Рожковский В.А. Малый бизнес как фактор устойчивого развития селских территорий // Вестник Алтайского государственного аграрного университета. 2016, № 4 (138). С. 189-193; Цой А.В. Развитие малого предпринимательства как одно из основных направлений устойчивого развития экономики // Вестник РМАТ. 2016, № 2. С. 32-36; Александров Е.Л., Александрова О.Е. Меры борьбы бедностью: Зарубежный и отечественный опыт. // Ж. Фундаментальные исследования. №9, 2015. С. 102. Балабанова Е.С. Стратегии совладения с жизненными трудностями: самостоятельность или зависимость? // Экономическая социология. – 2002. – Т. 3. – С. 59–78.; Беглова Е.И. Бедность ка социално-экономическое явление. Автореф. Дисс. На соискан. Ученной степени докт. Экон. Наук. Санкт-Петербург.: 2014. С. 11.; Еловиков Л.А. Социальная политика: Учебное пособие. –Омск: Омск.гос.университет, 2002. С. 26. Шугаева И.В. Методологические аспекты феномена бедности в современном обществе. // Электронное научное издание "Ученые заметки ТОГУ" 2016, Том 7, №4, С. 844. Разумов А.А., Селиванова О.В. Бедность в России: Региональные особенности и перспективные инструменты снижения ее уровня. // Социально-трудовые исследования. №4. 2021. С. 77. Зубкеевич Л.А. Влияние бедности как социального феномена на мировоззрение людей в современных условиях общественного развития (социално-философский анализ). // Векторы благополучия: экономика и социум. 2019. № 4 (35). С. 107.

3 G'ulomov S.S. Tadbirkorlik va kichik biznes. –T.: 2002. -256 b.; Abdullaev Yo. Kichik biznes va tadbirkorlik asoslari, 100 savolga - 100 javob. –T.: Mehnat. 2002. -157 b.; Xodiev B.Yu., Qosimova M.S. va boshqalar. Kichik biznesni boshqarish. –T.: 2003. -258 b.; Salaev S.K. Kichik biznes rivojlanish tendensiyalarini modellashirish va bashoratlash. i.f.d. ilmiy darajasini olish uchun yozilgan dissertatsiya avtoreferati. -T.: 2007.-14 b; Gafurov U.V. Kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.: iqt.fan.dok...diss. -T. O'zBMA. 2017. – 274 b.; Mustafaqulov Sh. (2020) Kambag'allik ayb emas, biroq... Xalq so'zi, 25.03.2020 y. № 62 (7564). Muxitdinova M.Z. Aholi turmush darajasini baholash: tahlil va samara. - Xalqaro moliya va hisob ilmiy elektron jurnalı. № 2, aprel, 2019 yil. G'aniyev M.X. "Innovatsion iqtisodiyotni shakillantirish sharoitida aholi farovonligini oshirish va kambag'allikni qisqartirish yo'nalishlari" dissertatsiya Toshkent-2023 yil; Пардаева Б. Состав доходов и социальная защита населения. 19-e Международное Плехановские чтения. – М.: 2006 , с. 32-33.



**1-jadval.** O'zbekistonda kam ta'minlangan aholi ulushi va kambag'allik darajasi<sup>4</sup>. (Uy xo'jaliklari tanlanma kuzatuvlari ma'lumotlariga asosan, %da)<sup>5</sup>.

Ko'rsatkichlar	Yillar												
	2010	2011	2012	2013	2014	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021	2022
<b>Respublika miqyosida</b>													
Kam ta'minlangan aholi ulushi	17,7	16,1	15,0	14,1	13,3	12,8	12,3	11,9	11,4	11,0	11,5	-	-
Kambag'allik darajasi	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	-	17,0	14,1
<b>Namangan viloyatida</b>													
Kam ta'minlangan aholi ulushi	18,1	15,3	15,2	11,9	12,6	12,1	11,7	10,5	11,9	10,6	11,2		
Kambag'allik darajasi												14,1	12,8

1. Iqtisodiy o'sish bir vaqtning o'zida ishchilar bandligi va daromadlarining ko'payishini anglatadi, ya'ni qashshoqlikning qisqarishiga bevosita ta'sir qiladi, boshqa tomondan, budjetga soliq tushumlarining ko'pa'yishi, bu esa ijtimoiy dasturlarni qo'llab-quvvatlash imkoniyatlarining kengayishini anglatadi. Boshqacha qilib aytganda, iqtisodiy o'sish qanchalik katta bo'lsa, uning "bo'lagi" jamiyatning har bir a'zosiga shunchalik katta bo'lishi mumkin. Buni xalqaro statistika ham tasdiqlaydi. Shunga ko'ra, qashshoqlikka qarshi kurashning asosiy "retsepti" iqtisodiy o'sishni tezlashtirishdir. Kambag'allikni qisqartirish va iqtisodiy o'sishni tezlashtirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish muhim ahamiyat kasb etadi. Quyida ushbu maqsadlarga hissa qo'shishi mumkin bo'lgan ba'zi yo'nalishlarni ko'rib chiqamiz.

2. **Moliyalashtirish imkoniyatlarini kengaytirish:** kreditlar, sug'urta va investitsiyalar kabi moliyaviy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirish bozor rivojlanishiga turki bo'lib, kichik va o'rta biznes uchun o'sish imkoniyatlarini taqdim etadi. Kichik biznes va tadbirkorlar uchun arzon va xilma-xil moliyaviy vositalar va kredit xizmatlari amalga oshiriladi. Bunga davlat mikromoliyaviy dasturlari, kredit kafolatlari, venchur kapitalni moliyalashtirish va kichik biznesni qo'llab-quvvatlashga qaratilgan mahalliy banklar va moliya institutlarini rivojlantirish kiradi. Moliyaviy xizmatlardan, jumladan, mikrokreditlar, jamg'arma hisobvaraqlari, sug'urta va boshqa moliyaviy vositalardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash aholining kam ta'minlangan qatlamlariga o'z moliyasini boshqarish, o'z biznesini rivojlantirish hamda ta'lim va sog'iqliqi saqlashga sarmoya kiritishga yordam beradi. Mikromoliya va muqobil moliyaviy vositalarning rivojlanishi ham tadbirkorlar uchun yangi imkoniyatlar yaratishi mumkin.

3. **Ta'lim va treninglar o'tkazish, ishchi kuchini o'qitish va tayyorlash:** tadbirkorlarga biznes, menejment, marketing va moliyaviy ko'nikmalarni rivojlantirish uchun ta'lim va treningdan foydalanish imkoniyatini ta'minlash kiradi. Bu biznes kurslari, mahorat darslari, maslahatlar olishni tashkil etish va biznes-inkubatorlarni qo'llab-quvvatlashni o'z ichiga olishi mumkin. Shuningdek, ta'lim, o'qitish va malaka oshirishga sarmoya kiritish ishchi kuchining malakasini oshirishga yordam beradi. Eng muhim, bu chora-tadbirlarni yuqori sifatli darajada tashkil etish talab etiladi. Bu yaxshi haq to'lanadigan ish o'rinnari va yuqori daromadlar uchun ko'proq imkoniyatlar yaratadi, bu, o'z navbatida, qashshoqlikni kamaytirishga yordam beradi.

4. **Qulay ishbilarmonlik muhitini yaratish:** biznesni tartibga solishni isloh qilish va kichik biznes uchun qog'ozbozlikni kamaytirish. Ro'yxatga olish, litsenziyalash va soliqqa tortish tartib-taomillarining soddalashtirilgani, yer, energetika va infratuzilmalardan foydalanish imkoniyatlari yaxshilangani kichik biznes rivojiga xizmat qilmoqda. Ishbilarmonlik muhiti bozor infratuzilmalari kengayib borgan sari kengayib boradi. Bozor infratuzilmalari tarkibidagi obyektlar ham, o'z navbatida, qandaydir bozor subyektiga xizmat ko'rsatishda bozor subyekti sifatida qatnashadi. Bu esa aynan bozor infratuzilmalari tarkibidagi obyektlarda ham yangi ish o'rinnari yaratilishiga va undagi bandlikni ta'minlash uchun mutaxassislar zarurligiga olib keladi. Ishbilarmonlik muhitining kengayishi uchun biznesni rivojiga xizmat qiladigan infratuzilma, kichik biznes korxonalari faoliyatini moliyaviy, mehnat, axborot resurslari bilan, shuningdek, transport, konsalting, audit, sug'urta va boshqa xizmatlar faolligini oshirish zarur.

Ishbilarmonlik muhitini nafaqat hukumat, balki mahalliy boshqaruv idoralari yordamida ham yaxshilash mumkin. Buning uchun hududiy-mahalliy sharoitlarni o'rganish maqsadida viloyat hokimligi tomonidan quyidagi

4 Jadval muallif tomonidan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi statistika agentligi qo'mitasi ma'lumotlari asosida tuzilgan.

5 Izoh: 2001-yildan 2020-yilgacha Juhon Banki tavsiyasiga ko'ra kam ta'minlanganlik darajasi ko'rsatkichi kunlik 2100 kkal miqdordan kelib chiqib hisoblangan, 2021-yil uchun Vazirlar Mahkamasining 2021-yil 27-avgustdaggi 544-sonli Qaroriga asosan aholi daromadlarini MIX miqdoriga nisbatan solishtirish orqali hisoblangan.



vazifalarni amalga oshirish zarur bo‘ladi<sup>6</sup>:

- mahalliy iqtisodiyotning yillik hisobotlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning rivojlanganligi daramasini tahlil etish;
- mahalliy ko‘lamda kapital bozorining ishlashini ta’minalash va unga kerak bo‘lgan tuzilmalar faoliyatini muvofiqlashtirish;
- mahalliy miqyosda faoliyat ko‘rsatayotgan kichik biznes subyektlari bilan infratuzilmalar o‘rtasida yuzaga kelgan muammolarni bartaraf etish choralarini ko‘rib borish.

– Savdo-sanoat palatasi tomonidan tayyorlanadigan hisobotlarda infratuzilmalar faoliyati to‘g‘risidagi ma‘lumotlarni kiritish va tahlil etish. Shu bilan birga, hududlarda va yirik shaharlarda faoliyat olib borayotgan kichik biznes subyektlari rivojini ta’minalaydigan va kafolatlaydigan indeks ko‘rsatkichlarini ishlab chiqish maqsadga muvofiqdir. Bunday jarayonni monitoring qilishni hududlardagi viloyat hokimligi tarkibidagi axborot-tahlil bo‘limlari tomonidan tashkillashtirish zarur bo‘ladi.

**5. Ish o‘rinlari yaratish:** bandlik darajasini oshirish va munosib ish o‘rinlari yaratish qashshoqlikni kamaytirishning muhim omildir. Buning uchun kichik biznesni rivojlantirish, ishlab chiqarishga sarmoya kiritish, yuqori qo‘srimcha qiymatga ega tarmoqlarni rivojlantirish, shuningdek, tadbirkorlik va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlashni rag‘batlantirish zarur. Yangi ish o‘rinlarini iqtisodiyotning eng zamonaviy sohalarida yaratish maqsadga muvofiq bo‘lmoqda. Masalan, sanoatning yangi tarmoqlarini joriy etish, axborot kommunikatsiya texnologiyalari sohasini o‘zlashtirish, raqamli iqtisodiyotni rivojlantirish va shu kabi tarmoqlarda yangi ish o‘rinlarini yaratish juda muhim. Bular, o‘z navbatida, shu sohada malakali kadr yetishtiruvchi tajribali o‘qituvchi-trenerlarni talab etadi.

Fikrimizcha, mamlakatimizda ish o‘rinlarini tashkil etish sohasidagi davlat siyosati ishsizlikni qisqartirish va aholining ijtimoiy zarur mehnat bilan bandligini ko‘paytirish bo‘yicha xorijiy davlatlar singari aniq usullar asosida ishlab chiqilishi kerak. Buning uchun quyidagi tadbirlarni e’tiborga olish zarur deb o‘ylaymiz:

- iqtisodiyotga kiritilayotgan investitsiyalarni davlat tomonidan rag‘batlantirish, bu esa yangi ish joylarini yaratishning asosiy sharti hisoblanadi;
  - yangi ish joylari tashkil etilganda tadbirkorlarga va kichik biznes korxonalariga soliq imtiyozlari berish;
  - o‘z-o‘zini ijtimoiy zarur mehnat bilan band qilishni rag‘batlantirish;
  - kichik biznes va oilaviy tadbirkorlikda investitsion faollikni rag‘batlantirish asosida shart-sharoitlar yaratish, bu ko‘plab mamlakatlarda aholi bandligini ta’minalashning muhim uslubi sifatida o‘rganilmoqda;
  - tarkibiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq ishsiz qolgan yoki ishidan ajralib qolish xavf solayotgan shaxslarning ish izlashlarini faollashtirish maqsadida kasba o‘qitish, qayta tayyorlash va ularga axborot-konsalting xizmatlarini ko‘rsatish;
  - mehnat bozorida vositachilik qilayotgan mehnat birjalarini va bandlik xizmatlarini rivojlantirish, friksion ishsizlik va tarkibiy o‘zgarishlar bilan bog‘liq ishsizlikni pasaytirish maqsadida vakant ish joylari to‘g‘risida ma‘lumotlar yig‘ish, tahlil qilish va ularga tezkor murojaatini ta’minalash (axborot-maslahat markazlari);
  - aholining alohida guruhlari – yoshlar, nogironlar, ishlash qobiliyati chegaralangan insonlar uchun ish joyi sharoitlarini yaratish bilan bog‘liq xarajatlarni qoplashlari uchun ish beruvchilarga kompensatsiyalar ajratish;
  - kompetentlik va mehnatga ijodiy munosabat uchun moddiy rag‘batlantiradigan ijtimoiy-iqtisodiy muhitni yaratish;
    - zarurat tug‘ilganda oilalarga ishchi kuchi zich bo‘lgan hududlardan vakant joylar bo‘lgan hududlarga ko‘chib o‘tishida subsidiya va kreditlar berish yo‘li bilan ko‘maklashish;
    - bandlik muammolarini hal qilishda xalqaro hamkorlik, xalqaro mehnat migratsiyasi bilan bog‘liq masalalarni hal qilish;
    - davlat sektorida – ta’lim, tibbiy xizmatlar, kommunal xo‘jaligi, jamoatchilik binolari va inshootlarini qurish sohalarida ishchi o‘rinlarini yaratish;
    - maqsadli jamoat ishlarni tashkil qilish va hokazo.

**6. Texnik qo‘llab-quvvatlash va innovatsiyalar:** kichik biznes uchun texnik yordam, maslahat va innovatsion texnologiyalardan foydalananish imkoniyatini ta’minalash. Bunga texnik treninglar tashkil etish, tadqiqot va ishlanmalarni qo‘llab-quvvatlash hamda yangi texnologiyalar va raqamli yechimlarni o‘zlashtirishga ko‘maklashish kiradi. Innovatsiyalarni iqtisodiy tarmoqlarida qo‘llash yangi biznesni tashkil etishga olib keladi. Innovatsiyalar uchun qulay muhit yaratish, startaplarni qo‘llab-quvvatlash va raqamli texnologiyalarni rivojlantirish yangi Biznes imkoniyatlarini oshirib, iqtisodiy jarayonlar samaradorligini oshirishi mumkin. Umuman olganda, ilmiy tadqiqotlarni rag‘batlantirish, innovatsiyalarni rivojlantirish va yangi texnologiyalarni qo‘llash bozor iqtisodiyotini rivojlantirishga xizmat qiladi. Bu, o‘z navbatida, yangi sohalarni o‘zlashtirish asosida yangi mutaxassisliklarni ham o‘zlashtirishga undaydi. Ya’ni, innovatsiyalar nafaqat texnikalarni qo‘llanilishiga, balki ularni

<sup>6</sup> Aripov O.A. O‘zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va ishbilarmonlik muhitini rivojlantirish. –T.: “Lesson Press” nashriyoti, 2021. 172-173 betlar.



ishga tushiradigan mutaxassisliklarni tayyorlash zaruriyatini keltirib chiqaradi. Shuningdek, raqamli texnologiyalarning keng joriy etilishi ham mehnat bozoriga o‘z ta’sirini ko’rsatadi. Milliy iqtisodiyotning deyarli barcha sohalarida iqtisodiy munosabatlarning elektron tarzda amalga oshirilishi global taraqqiyotning navbatdagi ko’rinishlaridandir. Ayni davrda global bozorda, shu jumladan, ishbilarmonlik muhiti tarkibidagi virtual muhitda bizning tadbirkorlarimizning raqobatdoshligini oshirishga erishmog‘imiz darkor.

**7. Bozorni rivojlantirish va yangi imkoniyatlardan foydalanish: bozorlarni rivojlantirish va kichik biznes uchun yangi imkoniyatlar yaratishni qo’llab-quvvatlash.** Bu ko’rgazmalar, yarmarkalar, biznes missiyalarini tashkil etish va yangi bozorlarga, jumladan, eksport imkoniyatlariga kirishni osonlashtirishni o‘z ichiga olishi mumkin. Agar bozor munosabatlari rivojlanib borsa, undagi raqobat ham rivojlanadi. Bozor o’sishini rag’batlantirishda infratuzilmani rivojlantirish va modernizatsiya qilish muhim rol o‘ynaydi. Bu, o‘z navbatida, yangi kichik biznes subyektlarini paydo bo‘lishiga olib keladi.

Xalqaro savdoda ishtirok etish va xalqaro munosabatlarning rivojlanishi bozorning o’sishiga yordam beradi va iqtisodiy rivojlanish uchun yangi imkoniyatlar yaratadi. Savdo shartnomalari imzolangan, eksport zonalari tashkil etilayotgani, xorijiy sarmoyalarning jalb etilayotgani va savdo bozorlarining kengaytirilayotgani biznesni rivojlantirish va iqtisodiy o’sish sur’atlarini oshirishga xizmat qilmoqda.

**8. Infratuzilmani rivojlantirish:** transport tarmoqlari, energiya, suv ta’minoti, sog’liqni saqlash va ta’lim, aloqa va internetga ularish kabi jismoniy va ijtimoiy infratuzilmani rivojlantirish inklyuziv iqtisodiy o’sishga erishishning asosiy omili hisoblanadi. Asosiy xizmatlardan foydalanish imkoniyatlarini yaxshilash ijtimoiy tengsizliklarni kamaytirishga va barqaror rivojlanishga yordam beradi. Yuqori sifatli va arzon infratuzilma aloqani yaxshilashga, transport xarajatlarini kamaytirishga va biznes samaradorligini oshirishga yordam beradi.

**9. Ijtimoiy himoya va inklyuzivlik:** kichik biznes va tadbirkorlik subyektlarini ijtimoiy himoya qilish va inklyuzivlik dasturlarini ishlab chiqish. Bu sog’liqni saqlash, ta’lim, ijtimoiy ta’minot va nochor tadbirkorlar uchun xizmatlardan foydalanishni davlat tomonidan qo’llab-quvvatlashni o‘z ichiga olishi mumkin. Ijtimoiy himoya, kam ta’minlangan oilalar uchun yordam dasturlari, ishsizlik nafaqalari, sog’liqni saqlash va ta’lim tizimlarining joriy etilishi qashshoqlikni kamaytirish va ijtimoiy inklyuziyani ta’minalashga yordam beradi.

**10. Zaif guruhlarni qo’llab-quvvatlash, ularni biznesga chorlash: bolalar, ayollar, migrantlar, nogironlar va boshqa shu toifadagi guruhlarni zaif guruhlarni qo’llab-quvvatlash,** kambag‘al aholi qatlamini qisqartirish muhim ahamiyatga ega hisoblanadi. Bunda kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari bilan kambag‘al aholi qatlaming o‘zaro bog‘liqlikdagi hamkorlik faoliyati mexanizmini shakllantirilishi zarur deb hisoblaymiz.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Mazkur masalalarni inobatga olgan holda strategiyani amalga oshirishda quyidagi tamoyillarga tayanishni maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- tadbirkorlik faoliyatini boshlamoqchi bo‘lgan ehtiyojmand aholining davlat tomonidan har taraflama qo’llab-quvvatlanishining kafolatlanganligi;
- tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishni avtomatlashtirish orqali inson omilini kamaytirishga e’tibor qaratilishi;
- davlatning iqtisodiyotdagi ulushi va aralashuvini doimiy ravishda qisqartirishga e’tibor qaratilishi;
- moliya bozorida raqobat muhitini yaratish, kredit ajratish jarayonini soddalashtirish hamda avtomatlashtirishning bozor mexanizmlariga asoslanganligi;
- kambag‘al va ehtiyojmand aholi qatlamiga tadbirkorlik faoliyati uchun litsenziya va ruxsatnomalar berish tizimini keskin qisqartirish va soddalashtirish ishlarining davom ettirilishi;
- iqtisodiy jarayonlarning shaffofligi va ochiqligi hamda qonun ustuvorligi;
- tadbirkorlarni zarur infratuzilma va energiya resurslari bilan ta’minalashning kafolatlanganligi.

### Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoyevning Oliy Majlisiga Murojaatnomasi. Xalq so‘zi gazetasi. 2020-yil 25-yanvar №18 (7521). [president.uz/oz/lists/view/5774](https://president.uz/oz/lists/view/5774)
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martdagи “Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambag‘allikni qisqartirishga oid davlat siyosatini tubdan yangilash chora tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5975-son Farmoni. <https://lex.uz/uz/docs/4776669>
3. Абулқосимов Ҳ.П., Қулматов А.А. Ўзбекистонда кичик бизнес соҳасида оилавий тадбиркорликнинг ўрни ва уни ривожлантириш йўллари. Монография. – Т.: Университет, 2015. – 126 б.
4. Болтаев Ш.Ш., Рахматов А.А. Тадбиркорликни инноватцион ривожлантиришнинг айrim жиҳатлари // Халқаро молия ва ҳисоб илмий-электрон журнали. 2019, №5.
5. Фофурова У.Ф., Хайтбоев Б.Х. Тадбиркорликни инновацион фаолият асосида ривожлантиришнинг йўллари // Халқаро молия ва ҳисоб илмий-электрон журнали. 2019, №1.

# Yashil

IQTISODIYOT  
va  
TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 9**

© Materiallar ko'chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

El.Pochta: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot\_77

Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot\_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan №5666955 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.

**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani  
Kumushkon ko'chasi, 26-uy.

